

TOSHLOQNING MA'RIFATLI BUVIJONISI BILAN BIR KUN

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87 sonli Farmonning 2-ilova, 67-bandini ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyati bo'limi xodimi G.Ahmadaliyeva hamda Toshloq tuman bo'linmasi rahbari O.Majidovlar "Buvijonlar ma'rifati" loyihasi doirasida Toshloq tumanidagi Turvat MFYda istiqomat qilayotgan Mavludaxon hoji ona Abdujabborova xonadoniga borilib, buvijonning ibratli hayot yo'lini yoshlarga targ'ib etish maqsadida dildan suhbatlashildi.

Mavludaxon hoji ona ko'pni ko'rgan, hayotning achchiq-chuchugini boshidan o'tkazgan, tajribalari, sabri, qanoat bilan uzoq yillar tibbiyat sohasida faoliyat yuritibgina qolmay, turmush o'rtoq'iga ko'mak sifatida fermer xo'jaligida ham tinim bilmay mehnat qilgan.

2023-01-19 08:19:54